



ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” DOSTONI TOPONIMLARINING LUG‘AVIY QATLAMLARI

Umarova Shahnoza

Qarshi DU, lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi magistri

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonidagi toponimlarning lug‘aviy qatlamlari xususida so‘z yuritilgan. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, “Xamsa” tarkibiga kiruvchi dostonlarda tasvirlangan voqealar ma’lum bir makon va zamonda yuz beradi va buni amalga oshirish uchun shoir onomastik qatlamning toponimika sathiga kiruvchi jug‘rofiy nomlar, shu hududdagi tog‘, daryo, shahar, qal‘a va boshqa lisoniy birliklardan keng foydalanadi. Dostonlar matnida uchragan toponimik birliklar qaysi til birligiga aloqadorligi nuqtai nazaridan o‘z va o‘zlashgan qatlamga mansubdir. Ana shu qatlamlarga kiruvchi birliklar ishda tahlilga tortilgan va zarur xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Xamsa”, toponim, toponimik birlik, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, arabcha toponimlar, fors-tojikcha toponimlar, hindcha toponimlar.

Kirish. “Xamsa” dostonidagi toponimik birliklarning lug‘aviy qatlamlari xususida so‘z yuritganda, bu boradagi tadqiqotchilarining qarashlariga e’tibor qaratishga to‘g‘ri keladi. Bu masalaga bag‘ishlangan deyarli barcha ishlarda toponimik birliklar dastlab ikki guruhga ajratib o‘rganilganiga guvoh bo‘lamiz:

A) *O‘z qatlam toponimlari*. O‘z qatlam toponimlari deyilganda, sof o‘zbekcha va umumturkiy joy nomlari ko‘zda tutiladi. Alisher Navoiy onomastikasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan Sh.Yoqubovning qayd etishicha, “o‘z qatlamga kiruvchi nomlar Navoiy asarlarida salmoqli o‘rin egallaydi”¹ Navoiyning “Xamsa” dostonidagi toponimlarning o‘z qatlamiga quyidagilarni kiritish mumkin: *Aqsoy, Ozorbayjon, Tur, Qifchoq, Qoratog‘, Qirim, Adoq, Kash//Kesh, Koshg‘ar, Samarcand, Turon, Turkiston, Xorazm, Qarabog‘, Qarshi* kabi.

B) *O‘zlashgan qatlam toponimlari*. Ushbu qatlamga noqarinldosh tillardan o‘zlashgan barcha toponimik birliklar kiritiladi. Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonidagi toponimlarning o‘zlashma qatlamiga quyidagilarni kiritish mumkin: *Hirmand, Hirrot, Halab, Quds//Quddus, Qustantiya, Qutayf, Eron, Yunon, Shom,*

¹ Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi. Fil.fan.nom...dissertatsisi. – Toshkent, 1994. –B.81.



Sheroz, Charkas, Chaxcharon, Xaybar, Xavarnaq, Fors, Farxor, Faranj, Farang, Ummon, Tur, Sipahon. Sind, Salsabil, Salosil, Saddi Iskandar, Rus, Parvin, Nishopur, Os, Nil, Navshod, Najd, Nayrul-hayot, Nasrin, Muhit, Mukron, Moxon, Mag'rib, Movaraunnahr, Mashriq, Madoyin, Ko'hak, Kobuliston, Kech, Kirmon, Iram//Eram, Izam, Zangibor, Junpur va boshqalar.

Bizga ma'lumki, o‘z salaflaridan farqli ravishda Alisher Navoiy “Xamsa” dostonini turkiy tilda yozdi. Atoqli shoir Abdulla Oripov yozganidek, “Besh asrkim nazmiy saroyni, Titratadi zanjirband bir sher”. Darhaqiqat shunday. Shu boisdan “Xamsa” dostoni onomastikasi, shu jumladan, toponimikasini tadqiq etish tilshunoslarimizning galdeg'i vazifalaridan biri bo‘lishi shubhasiz.

Biz ham ushbu tadqiqotimizda dostondagi toponimik birliklarning lug‘aviy-etimologik qatlamlarini tadqiq etishga harakat qildik. Ushbu tadqiqot appelliyatik leksikada Alisher Navoiy hazratlarining so‘z qo‘llash mahoratiga baho berish uchun asos vazifasini o‘tay oladi degan umiddamiz. Bu fikr onomastik, shu jumladan, toponimik birliklarga ham tegishlidir.

Asosiy qism. XIV-XV asr sharoitida O‘rta Osiyo va uning hududiy bo‘linishiga ega bo‘lgan Movarounnahr va Xurosonda turkiy til (o‘zbek tili) bilan bir qatorda boshqa tillar ham qo‘llanilar edi. O‘z qatlam toponimlariga umumturkiy tilga mansub atoqli otlar va o‘zbek tilining o‘ziniki bo‘lgan onomastik birliklar kirsa, o‘zlashgan qatlam birliklariga esa arabcha, fors-tojikcha, hindcha va boshqa xorijiy tillardan o‘zlashgan birliklar kiradi.

O‘zlashgan qatlam toponimik birliklarni o‘z navbatida tadqiqotchilar tarkibiy tuzilishiga ko‘ra yana kichik guruhlarga bo‘lib tadqiq etganiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, arabcha, arabcha+mo‘g‘ulcha arabcha+fors-tojikcha, fors-tojikcha, fors-tojikcha+arabcha, o‘zbekcha+fors-tojikcha, yahudiycha kabi kichik guruhlarga bo‘lib o‘rganadilar. Bunday tasnif asosan antroponomik birliklarga oid tadqiqotlarda ko‘proq uchraydi.

O‘z qatlam toponimlari. Bahrom Bafoev “Navoiy asarlari leksikasi” monografiyasida shoir asarlarida uchragan antroponom va toponimlarning lug‘aviy tarkibini qisqacha yoritib beradi².

Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida uchraydigan o‘z qatlamga mansub toponimlar tarkibiy tuzilishiga ko‘ra quyidagicha guruhlarga bo‘linadi: a) o‘zbekcha toponimlar: *Adoq, Kash//Kesh, Koshg‘ar, Samarqand, Turon, Turkiston, Xorazm, Shahrисабз, Qorabog‘, Qoratog‘*.

²Bafoev B. Navoiy asarlari leksikasi. – Toshkent; Fan, 1983. – B.37-42.



O‘z qatlamga mansub toponimlarning ma’nolarini quyidagicha izohlash mumkin:

KASH//KESh – Shahrisabzning dastlabki nomi: *Dedilar: Kishvari erur dilkash, Oti ham Shahrisabz erur Kesh ham.* (SS)

SAMARQAND – Movaraunahriddagi ma’muriy va madaniyat markazi bo‘lgan qadimi shahar; Qadimi Sug‘d davlatining poytaxti – Maroqand: *Misru Samarcand ne monand anga, Zamnida yuz Misru Samarcand anga.* (HA)

TURKISTON – turkiy xalqlar yashaydigan o‘lkalar; Turkiston: *O‘ngda turkinavoz urub doston, Qo‘zg‘olib har navoda Turkiston.* (SS)

TURON – Turkiston: *Ham Eronu Turon, ham Aqsayi Chin, Anga tegrukim, hadd Mashriq zamin.* (SI)

O‘zlashma qatlam toponimlari.

Arabcha nomlar qatlami. “O‘zbek onomastikasiga arabcha nomlar ikki yo‘l bilan kirib kelgan. Birinchidan, islom dini mahalliy aholining oldindan mavjud bo‘lgan nom berish odatlarini o‘zgartirdi va unga yangi diniy an’analarni kiritdi. Toponimik ob’ektlarga beriladigan nomlar ichida arab tilidan o‘zlashgan o‘zlashmalar ko‘proq uchray boshladi. Ikkinchidan, mahalliy aholi arabcha nomlarga ko‘nikib, ularni qo‘llash tilimizda an’anaga aylanib qolgan arabcha nomlarni topoob’ektlarga qo‘yadigan bo‘ldilar. Bunday hol o‘zbek onomastikasining boshqa sohalariga ham taalluqlidir. Alisher Navoiy yashagan XV asr sharoitida atoqli otlarning salmoqli qismini arabcha so‘zlar tashkil qiladi. Tarixiy toponimlar Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Vaqfiya”, “Munshoat” va “Xamsa” asarlari ko‘proq uchraydi va bu joy nomlarining katta qismi arabchadir. Ikkinchidan, bu nomlar XV-XVI asrlarda faol qo‘llanilgan joy nomlari hamdir. “Xamsa” dostonida quyidagi arabcha toponimlar uchraydi: *Astahi yeri* (SS), *Ajam* (FSh), *Arab* (FSh), *Baytul haram* (FSh), *Vodiyi Hamim* (SS), *Janub* (SI), *Qof* (FSh), *Qasri Ahzar* (SS), *Adan* (SS), *Ayman* (LM), *Baytul muqaddas* (SI), *Bahrun-najot* (FSh), *Izam* (LM) kabi.

“Xamsa” asaridagi arabcha toponimik birliklarning lug‘aviy ma’nolari quyidagicha:

Adan – Yamanning janubida joylashgan shahar nomi:

Bor ekandur Adanda javrfone,

Javr qilmoq fanida safshikane. (SS)

Baytul-muqaddas – Quddus va u yerdagi zityoratgohning nomi:

Agar Zobilistong ‘a soldi futur,

Vale Baytul-muqaddasqa berdi surur. (SI)



Bahrun-najot – Farhod qazigan hovuz:

...va “**Bahrun-najot**” havzin qasr olinda metini xoroshigof bila namudor qilib....(FSh)

Vodiyi Hamim - issiq va olovli vodiy nomi:

Debon el “Vodiyi Hamim” otin,

Hirkati aylab ani isbotin. (SS)

Izam – Arabistondagi tog‘ nomi:

Gohi Izam uzra lam ’aafkon,

Shoh uzra nechukki nori ayman. (LM)

Fors-tojikcha nomlar qatlami. Turkiy xalqlar tili juda qadim davrlardan buyon O‘rta Osiyoda azaldan yashab kelgan eroniy tillar bilan aloqada bo‘lib kelgan. Shunday ekan, hozirgi turkiy tillar va o‘zbek tilida uchrovchi sug‘d, qadimgi xorazmiy tillari elementlari qadimiylar yuz bergan tillararo aloqalar natijasi deb qaralmog‘i kerak.

Eroniy tillarning izlari, ayniqsa, respublikamizdagи barcha shevalar leksikasida juda sezilarlidir. Prof. O.Madraximovning qayd qilishicha, “eroniy tillar o‘zagiga aloqador bo‘lgan leksik qatlam Xorazmdagi o‘g‘uz shevalari leksikasining organik qismiga aylanib ketgan. Ular kundalik hayotda ko‘p ishlatiladigan zarur va muhim tushunchalarni ifodalovchi so‘zlardir”³. Olimnng bu fikrlari o‘zbek tilining boshqa shevalariga ham tegishli deb bemalol aytish mumkin. Bu o‘zlashmalar barcha sheva vakillari tiliga shu darajada singib ketganki, hatto, bu elementlar boshqa til oilasiga mansub ekanligini ba’zan payqash ham ancha mushkul bo‘lib qoladi.

Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonidagi toponimlarning ma’lum qismi fors-tojikcha nomlar sanaladi. Masalan, *Bog‘i Zag‘on, Vodiyi Hamim, Darijaz suyi, Darbast, Dashti Qipchoq, Zangibor, Iram, Kirmon, Ko‘hak* va boshqalar.

“Xamsa” asaridagi fors-tojikcha toponimik birliklarning lug‘aviy ma’nolari quyidagicha:

Darijaz suyi - anhor nomi: *Yana bir alardin Darijaz suyi, Manofi’da ul nav’kim – raz suyi.* (SI)

Dashti Qipchoq– Xazar (Kaspiy) dengizining shimolida joylashgan keng voha; Sirdaryodan Janubiy Rossiya dashtlarigacha yoyilgan keng tekislik nomi: *Chekib ra’yati mehri ishqorni, Yoruq aylabon Dashti Qifchoqni.* (SI)

Zangibor - Sharqiy Afrika mamlakatlari shu nom bilan ham atashgan: *Qilib Zangibor ahlig‘a chiyraliq, Yudi tig‘i suyidin ul tiyralik.* (SI)

³Madraximov O. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi leksikasi. -Toshkent: Fan, 1973. -B. 49.



Iram - afsonaga ko‘ra, xudolikni da’vo qilgan Shaddod ismli podsho barpo etgan bog‘: *Qo’ptiyu qo’ydi chu bir-ikki qadam, Bo’ldi ayon ravzai bog‘i Iram.* (HA)

Kirmon - Erondagi shahar va viloyat nomi: *Ham yiborur la’l Badaxshon sori, Ham ketutu zirani Kirmon sori.* (HA)

4. Hindcha toponimlar. Hind tilidan o‘zlashgan joy nomlari ham Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoni matnida ma’lum miqdorda uchraydi. Jumladan: *Jaypur, Junpur, Sind, Gujrot, Nigor, Sind, Sarandib, Hind, Hindiston mulki, Hind mulki* kabi toponimlar hind tilidan o‘zlashgan. Bu toponimlarning ma’lum qismi shahar va viloyat nomlari (Jaypur/Junpur, Gujrot) sanalsa, boshqalari daryo nomi (Sind) va o‘rmon nomidir (Nigor). Ushbu toponimlarning qo‘llanilishi bevosita shu makonda o‘tgan voqeliklarni ifodalash uchun ishlatilgan. Quyida ushbu nomlarning lug‘aviy ma’nolari haqida fikr yuritamiz:

Jaypur - Hindiston shaharlaridan biri: *Shahranga Junpur, oti Jaypur, Zulm ila Hind mulkida mashhur.* (SS)

Junpur - Hindistonning Dehli va Agra shaharlari orasida joylashgan shahar: *Shahranga Junpur, oti Jaypur, Zulm ila Hind mulkida mashhur.* (SS)

Sind – Janubiy Osiyodagi daryo (hozirgi Hind daryosi): *O’tub Sind ila Kechu Makron sori, Ham andin qilib azm Kirmon sori.* (SI)

Gujrot - Hindistondagi viloyat nomi: *Sipohi masun borcha ofotdin, O’tub bandaru mulki Gujrotdin.* (SI)

Nigor - Hindistondagi o‘rmon nomi: ..va roy Iskandari sohibroyi Hind sori boshlab, beshai Nigorda qishliq ko‘rguzgani. (SI)

“Xamsa” asaridagi yunoncha toponimik birliklar ham uchraydi. Lekin ularning miqdori juda kam: Ko‘stantaniya (SS), Iskandariya (SS) kabi.

Xulosa. ”Xasma” dostonidagi toponimlarning lug‘aviy qatlamlarini tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiy ma’lum bir voqealarning tasvirini berayotganda shu joyga tegishli bo‘lgan atoqli otlardan keng foydalangan. Shuningdek, voqelar o‘zga mamlakatlarda kechayotgan bo‘lsa, shu mamlakatlarga tegishli nomlar qo‘llangan. Bu esa “Xasada”gi toponimlarni o‘z va o‘zlashgan qatlamlarga ajratib o‘rganish uchun asos vazifasini o‘tay oladi.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. Mas’ul muharrir: Sh. Sirojiddinov. Birinchi jild. Toshkent: Sharq, 2016. – 535 b.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4-tom. – Toshkent, Fan, 1984.



3. Bafoev B. Navoiy asarlari leksikasi. – Toshkent; Fan, 1983. – B.37-97.
4. Madraximov O. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi leksikasi. -Toshkent: Fan, 1973. -B. 49.
5. Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi. Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1994. – 24 b.
6. Tillaeva M. Xorazm onomastikasi tizimining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol. fanlari nomzodi. diss. – Toshkent, 2006. – 26 b.
7. Turdibekov M. Abulg‘ozи Bahodirxonning “Shajarai turk” onomastikasi. Monografiya.– Toshkent: Nodirabegim nashriyoti.2020. –104 b.